




# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 4032,2 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,0 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 4000,9 mlrd.so'mni (101,0 foiz), o'rmon xo'jaligida – 8,1 mlrd.so'mni (100,8 foiz), baliq xo'jaligida – 23,2 mlrd.so'mni (104,6 foiz) tashkil qildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Parkent (105,6 foiz), Bekobod (105,1 foiz), va O'rtachirchiq (105,5 foiz) tumanida kuzatildi. Chinoz (91,1 foiz), Quyichirchiq (92,5 foiz), Ohangaron (93,5 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Bekobod tumanining ulushi 13,1 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Zangiota 9,1 foiz Bo'stonliq 9,1 foiz Chinoz 8,1 foiz Qibray 6,8 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Parkent (2,9 foiz) Oxangaron (3,5 foiz), va Toshkent (4,3 foiz) tumanlarida qayd etildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 98,2 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 104,9 foizni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 77,2 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 16,1 foizi – fermer xo'jaliklariga, 6,7 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


## Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2158,9 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 98,2 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,5 foizni tashkil qildi.



**Hosilni yig'ib olish.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 142,3 ming tonna (100,2 foiz) kartoshka ishlab chiqarildi, 984,3 ming tonna (100,9 foiz) sabzavotlar, 16,8 ming tonna (92,0 foiz) oziqbop poliz, 38,8 ming tonna (98,2 foiz) meva va rezavorlar, 1,7 ming tonna (109,2 foiz) uzum yig'ib olindi. Bundan tashqari 0,33 mln.tonnadan ortiq don ekinlari ishlab chiqarildi..

### Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 89 foizi, sabzavotlarning 56 foizi, meva va rezavorlarning 66,5 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining

93,0 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.

## Chorvachilik




2018 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1766,7 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 104,9 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 43,9 foizni tashkil etdi.

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar

tomonidan tirik vaznda 133,8 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,5 foizga ko'p), 441,3 ming tonna sut (4,2 foizga), 597,2 mln.dona tuxum (8,2 foizga), 1,2 ming tonna jun, ishlab chiqarildi.

### Asosiy turdagi chorvachilikmahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 87 foizi dehqon

(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 90 foizi, tuxumning 55 foizi, junning 80 foizi, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

## Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 806 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 387,5 ming boshga, qo'y va echkilar – 939,8 ming boshga, parrandalar – 14375,7 ming boshga etdi.


2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 24,7 ming boshga (3 foizga) kamaygan, shu jumladan sigirlar – 25,7 ming boshga (7,1 foizga), qo'y va echkilar – 65,7 ming boshga (7,5 foizga), parrandalar – 12,9 ming boshga (0,1 foizga) ko'paydi.

## Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2018 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,5 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy



sonidan 29,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 67,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 5,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 58,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 35,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

- 230-86-68
- 230-86-69